

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH

O'rinova Feruza O'ljayevna

Far Du dotsenti.

Gulomova Dilyora Iskandarovna

Far Du magistranti.

Annotatsiya. Mazkur maqola tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga oid yozilgan maqoladir. Maqolada o'z-o'ziga baho berish, kasbiy kompetentlikni qanday shakllantirib boorish usullari berib o'tilgan.

Kalif so'zlar. Kasbiy kompetensiya, o'z-o'ziga baho berish, o'z-o'zini rivojlantirish, kompetentlik, malaka, ko'nikma, tarbiyachi o'qituvchi.

Аннотация. Данная статья посвящена формированию и развитию профессиональной компетентности воспитателей. В статье даны методы самооценки, способы формирования профессиональной компетентности.

Ключевые слова. Профессиональная компетентность, самооценка, саморазвитие, компетентность, компетентность, умение, педагог-воспитатель.

Annotation. This article is a written article on the formation and development of professional competence of educators. The article provides methods of self-assessment, how to formulate professional competence.

Keywords. Professional competence, self-assessment, self-development, competence, competence, skills, educator teacher.

XXI-asr zamonaviy ta'limni o'z ichiga qamrab olib albatta u turli xil jabhalarda rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Miromovich Mirziyoyev ham ushbu yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qildilar. Mamlakatning rivojlanishi va ravnaq topishida albatta ta'limning o'rni beqiyos sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Kontitutsiyasining 7 – 50-moddasida "Ha kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari davlat va nodavlat ta'lim tashilotlari rivojlanishini ta'minlaydi" deb yozilgan edi. Ilm-fan va texnikaning jadal rivojlanishi, jamiyatda ijtimoiy jarayonlarning jadal o'zgarib borayotgan zamonaviy sharoitda jahon standartlari darajasida o'z mutaxassisligi bo'yicha samarali ishlashga, o'z-o'zini doimiy ravishda o'rganishga va o'z-o'zini yaxshilashga qodir mutaxassislar talab etiladi. Bu

kasb-hunar ta'limi muassasalaridan professional malakali mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi.

Tarbiyachi stoliga ko'tarilgan kishi har bir talaba, yosh avlod, jamiyat va davlatning taqdiri uchun mas'uldir. Bugungi kunda tarbiyachi o'qituvchilarning mehnat natijalari qanday bo'ladi-ertaga bizning jamiyatimiz shunday bo'ladi. Har bir inson va butun xalqning taqdiriga juda bog'liq bo'lgan boshqa faoliyatni tasavvur qilish qiyin. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy malakasini aniqlash muammosi o'qituvchilar, amaliyotchilar, masalan, olimlar G. M. Kojaspirova, E. M. Nikitin, N. V. Kuzmina, M. I. Smirnova va boshqalar o'rtasida nizo va kelishmovchiliklarning ob'ekti bo'ldi. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbida etakchi vazifa ijtimoiy maqsadlarni tushunish va boshqalarning sa'y-harakatlarini ularga erishishdir. Bu samarali ijodiy faoliyat, o'quv jarayonining rivojlanishini boshqarish va o'z kasbiy malakasini oshirishga qodir bo'lgan o'qituvchilar bo'lib, maktab bitiruvchisining o'z – o'zini rivojlantiradigan shaxsiga jamiyatning ehtiyojlarini qondira oladi.

“Kompetentlik” asl tushunchasi inglizcha so'zdan olingan bo'lib “qobiliyat” degan ma'nolarni anglatadi. Biroq uni mazmunan tushunadigan anglaydigan bo'lsak, faoliyat jarayonida nazariy bilimlardan foydalana olish, yuqori darajaga ega bo'lgan kasbiy malakaga ega bo'lish, yuqori darajadagi qobiyatga ega bo'lish tushuniladi albatta.

“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati. Inglizcha “competence” tushunchasining lug'aviy ma'nosi aynan “qobiliyat” ma'nosini ifodalasa-da, biroq, mazmunan faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalana olish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish mazmunini yoritishga xizmat qiladi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan bo'lib, u noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni yoritadi.

Kompetentlik – bu mutaxassisning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi.

Kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Tarbiyachi o'qituvchi hayotida kasbiy kompetentlik sifatlari, mutaxassis tarbiyachi qiyofasida namoyon bo'ladigan kasbiy kompetentlik o'zida bir qator sifatlarni qamrab oladi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi sifatlardan tarkib topadi:

1. Ijtimoiy-huquqiy kompetentlik – ijtimoiy tashkilotlar va sub'ektlar bilan o'zaro munosabatda bo'la olish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy muloqot va xatti-harakat uslublarini o'zlashtira olganlik.

2. Shaxsiy kompetentlik – doimiy ravishda kasbiy o'sishga erishish va kasbiy malakani oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olish.

3. Maxsus kompetentlik – mustaqil ravishda kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, odatiy kasbiy-pedagogik vazifalarni to'g'ri hal qilish va o'z mehnatining natijalarini real baholash malakasiga hamda mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim, ko'nikmalarni mustaqil ravishda izchil o'zlashtirib borish qobiliyatiga egalik.

4. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyatiga, zamonaviy didaktik vositalar (texnik vositalar va o'quv qurollari)dan foydalanish malakasiga egalik.

5. Tezkor harakatlana olish kompetentligi – favqulotda holatlarda (tabiiy ofatlar sodir bo'lganda, texnologik jarayon ishdan chiqqanda) va muammoli vaziyatlarda (pedagogik ziddiyatlar yuzaga kelganda) oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik kabilar)ni samarali o'zlashtira olishiga yordam beradi.

Kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis tarbiyachi o'qituvchi:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Bo'lajak tarbiyachi o'qituvchilrining kasbiy kompetentligi pedagogik faoliyatning barcha tomonlarida: kasbiy faoliyatda, kundalik munosabatlarda, shaxsiyat rivojlanishida, mehnatning majmuyi natijasida namoyon bo'ladi va uning barcha komponentlari shakllanganligini talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2022-yilgi yakuniy murojatnomasidan.

2.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahriri 2023- yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovozi berish orqali qabul qilingan nashridan.

3.G.O.Ochilova "Kasbiy kompetentlik " O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.

4.O'rinova Feruza O'ljayevna Far Du dotsenti. "The Strukture of Proffesional Competensiens of the Future Teacher of Preschool Education Institution.

5.Gulomova Dilyora Isskandarovna "The Strukture of Proffesional Competensiens of the Future Teacher of Preschool Education Institution.